

SAROYMULKXONIM MEROSI: BIBIXONIM MASJIDINING ULUG‘VOR TARIXI.

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti

2-kurs talabasi Temirova Marjona

Ilmiy rahbar : Burxonov Laziz

Anotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar davrining yirik me'moriy yodgorliklaridan biri — Bibixonim masjidining bunyod etilish tarixi, me'moriy xususiyatlari hamda Saroymulkxonim nomi bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Masjidning Amir Temur hukmronligi davridagi siyosiy, diniy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Bibixonim masjidining Temuriylar davri me'morchiligidagi o'rne, bezak san'ati va tarixiy meros sifatidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqola tarixiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu yodgorlikni ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Bibixonim masjidi, Samarqand, Amir Temur, Saroy Mulk xonim, O'rta Osiyo obidarlari, Qur'on lavhi, marmar ustunlar, gumbazchalar, peshtoq, zilzila ta'siri, mehrobli bino, naqshinkor bezaklar, tarixiy me'morchilik, jome masjid.

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu zaminida bunyod etilgan me'moriy obidalar xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va ma'naviy dunyosini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, Temuriylar davrida yaratilgan me'moriy yodgorliklar nafaqat o'z davrining siyosiy va iqtisodiy qudratini, balki yuksak badiiy did va ilmiy tafakkurni ham namoyon qiladi. Ana shunday noyob obidalardan biri Bibixonim masjidi bo'lib, u Samarqand shahrining tarixiy markazida joylashgan eng ulkan jome masjidlardan biri hisoblanadi. Bibixonim masjidi Amir Temur hukmronligi davrida bunyod etilib, Temuriylar saltanatining markaziy diniy inshooti vazifasini bajargan. Ushbu masjid o'zining miqyosi, me'moriy yechimi va bezaklari bilan o'sha davr Sharq me'morchiligida alohida o'rin egallaydi. Masjid qurilishida zamonasining ilg'or muhandislik usullari, murakkab konstruktiv yechimlar hamda rang-barang bezak san'ati namunalaridan keng foydalanilgan. Masjidning Saroymulkxonim nomi bilan atalishi bejiz emas. Saroymulkxonim Amir Temurning rafiqasi bo'lib, davlat va saroy hayotida muhim o'rin tutgan, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida tanilgan. Bibixonim masjidi uning nomi bilan bog'lanishi Temuriylar davrida ayollarning jamiyatdagi mavqei va ma'naviy hayotdagi ishtirokini ko'rsatadi. Shu jihatdan masjid nafaqat diniy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan inshoot sifatida e'tirof etiladi. Asrlar davomida Bibixonim masjidi tabiiy ofatlar, urushlar va e'tiborsizlik sababli jiddiy zarar ko'rgan bo'lsa-da, uning tarixiy va me'moriy qadr-qimmatini saqlanib qolgan. Bugungi kunda u O'zbekistonning muhim madaniy meros obidalaridan biri sifatida davlat muhofazasiga olingan. Bibixonim masjidi Temuriylar

davri me'morchiligini, Saroymulkxonim merosini va Samarqandning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bibixonim (asl ismi Saroymulkxonim) (1341 — 1408) — Amir Temurning katta xotini, Chig'atoy ulusi xoni — Qozonxonning qizi. Dastlab Amir Qazag'onning nabirasi — Xusayn ibn Musallabga (1355), keyin (Xusayn qatl etilgach) Amir Temurga nikohlangan (1370). Shu bilan Amir Temur Ko'ragon unvoniga musharraf bo'ladi. Zotan xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug' hisoblanib, „Katta xonim“ yoxud „Bibixonim“ degan unvonga noil bo'ladi.[<https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibixonim>] Bibixonim masjidining qurilishi to'g'risida o'sha davr tarixchilari anchagina ma'lumot qoldirishgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida Amir Temurni islom dini himoyachisi sifatida tasvirlab, "Allohga sajda qilinadigan yerlarni Allohga va oxiratga ishonadigan kishilar qurishi lozimligini, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) kimda kim Alloh yo'liga masjid qursa, Alloh uning uchun jannatda bir uy quradi" degan so'zlarini asoslab, "Amir Sohibqiron hazrat kofirlari munkirlarni yo'qotishdan va buzuqchilarga qarshi jihoddan forig' bo'lib, humoyun uzangilar u diyorlardan Samarqand tomon ravona bo'lgach, dorulmulk Samarqandda bir jome' masjidi qurib, bu xayrli ish bilan qudrat egasiga yaqinlikga erishish niyatini qat'iylashtirdi" [Mamatkulova Shaxnoza Raxmonkulovna "SAMARQANDDA TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYOD ETILGAN ME'MORIY OBIDALAR "] Masjidni Amir Temur Hindiston yurishidan qaytib kelgach, 1399–1404-yillar mobaynida o'zining ulug' bekasi Saroy Mulk xonimga atab qurdigan. Binobarin, bu «Bibixonim» masjidi jomeyi nomi bilan mashhur bo'lgan. Masjidi jome O'rta Osiyodagi obidalarining eng yirigi sanaladi. Uning hovlisining sahni 63,8 × 76,0 metr bo'lib, atrofi ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan. Masjidning umumiy sahni esa 167 × 109 metrdir. Hovli o'rtasiga marmar toshdan ulkan lavh — Qur'on qo'yib o'qiladigan maxsus kursi qo'yilgan. U avvallari asosiy bino ichida bo'lib, 1875-yilda gumbazning qulash xavfi tug'ilganda hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan. Mazkur lavh Ulug'bek Mirzo Ko'ragonning farmoni bilan yasalgan bo'lib, unda: «Sultoni a'zam, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiy mazhabining posboni, aslzoda sulton ibn sulton amir al-mo'minin Ulug'bek Ko'ragon» deb yozilgan. Bibixonim masjidiga kiraverishdagi katta peshtoqning ustki qismi 1897-yilgi zilzilada qulab tushgan. Peshtoqning ichki qismida kichikroq ikkinchi ravoq va o'yma marmar hoshiyali darvozasi bo'lgan. Darvoza ustidagi lavhada masjid qurilgan yili va Amir Temurning shajarasi bitilgan. Masjidning «haft jo'sh» — yetti xil metall qotishmasidan yasalgan qo'sh tabaqali darvozasi bo'lgan, keyinchalik u yo'qolib ketgan. Davr o'tishi mobaynida Bibixonim masjidi zilzilalar ta'sirida ancha futurdan ketib, vayronaga aylangan. Hozirgi kunda masjid bir-biri bilan bog'lanmagan olti bo'lakdan iborat bo'lib, hovlining yuqori qismida mehrobli baland peshtoqli bino, poygakda ikkiga ajralgan peshtoq hamda shimoli-g'arb qismida yakka holda saqlanib qolgan minora mavjud. O'z davrida bu bo'laklar uch qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar orqali birlashtirilgan bo'lib, ularning ustida

400 ta gumbazchalar bo'lgan. Ustunlarning jami 480 ta bo'lib, oralig'i 3,5 metr, ostki qismi maxsus tagkursili, o'rta qismi o'yma naqshinkor, yuqori qismi rangli koshinlar bilan qubba shaklida bezatilgan. Bibixonim masjidi vayrona holatda bo'lsa-da, serhasham bezaklarining nafisligi va rang-barang naqshlari o'sha davr ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beradi. [Turg'un Fayziyev "Temuriy malikalar"] XV asr manbalarining ko'pchiligida hamda keyingi asrlarda bitilgan asarlarda Amir Temur qurdirgan Jome' masjidining tasvir-tavsifi ancha keng berilgan. [Botirxon Valixo'jayev " Saroymulkxonim - Bibixonim Madrasasi"] Majmua o'sha davrning eng katta va muhtasham jome masjidi bo'lishi rejalashtirilgan edi va shunga erishdi. [Ernazarova Shahnoza Ergash qizi, Toshkent Gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi "SOHIBQIRON AMIR TEMUR DAVRIDA SAYQAL TOPGAN SAMARQAND"]

Bu masjid haqida xalq orasida rivoyat ham paydo bo'lgan. Rivoyatda aytilishicha masjid Amir Temurning Hindistonga muvaffaqiyatli yurishidan qaytgani sharafiga uning farmoni bilan qurilgan va sevimli xotini sharafiga nomlangan. Boshqa bir afsonada esa, qurilishni Bibixonimning o'zi boshlab bergani, u hukmdor harbiy yurishda bo'lganida unga sovg'a sifatida masjid qurmoqchi bo'lgani aytiladi. G'oyani amalga oshirish uchun u Samarqandning eng mohir me'mor va quruvchilarini to'plab, ularga ishni topshirgan va erining qaytishiga qadar qurilishni tugatishga intilgan. Biroq bosh me'mor malikaning go'zalligidan maftun bo'lib, muddatni ataylab cho'za boshlagan. Bibixonim qurilishni tezlashtirishni talab qilganda, me'mor shartini qo'ygan: agar malika unga bir bo'sa hadya etsa, masjidni o'z vaqtida qurib bitkazadi. Avvaliga malika o'z o'rniga istalgan cho'risini taklif qilib, uni ko'ndirishga uringan. Biroq me'mor rad etgan. "Hamma ayollar tashqi ko'rinishidan turlicha bo'lishi mumkin, lekin mohiyatan bir xil", deya ishontirmoqchi bo'lgan Bibixonim har xil rangli tuxumlarni ko'rsatib. Ammo me'mor shunday javob bergan: "Suv va sharob quyilgan qadahlar tashqi ko'rinishidan o'xshash bo'lsa-da, ta'mi har xil bo'lgani kabi sen ham, malika, betakrorsan". Temurning qaytishiga sanoqli kunlar qolganda, Bibixonim tazyiqqa bo'ysunib va kutilmagan sovg'ani barbod qilish xavfini ko'zga ilib, rozi bo'lgan. Yosh va kelishgan me'mor uning yuzida shunday kuchli bo'sa izi qoldirganki, u hatto malika yopinmoqchi bo'lgan qo'lidan ham o'tib ketgan. Temurning Samarqandga qaytishi masjidning ulug'vorligidan hayratlanish bilan boshlangan, biroq xotinining yuzidagi izni ko'rgach, quvonchi g'azabga almashgan. Haqiqatni eshitgach, hukmdor g'azablanib, jasur me'morni topishni buyurgan. Me'mor ta'qibdan qochib, shogirdi bilan masjidning minoralaridan biriga ko'tarilgan. Soqchilar ularga yetib kelganda, shogirdni yolg'iz topishgan. Ustozi qayerdaligi haqidagi savolga u: "Ustoz o'ziga qanotlar yasab, uchib ketdi," deya javob bergan. Shunday qilib, Bibixonim masjidining qurilishi haqidagi afsona tarixda nafaqat me'moriy mo'jiza, balki go'zallik, jasorat va kechirim haqidagi ajoyib hikoyani ham qoldirgan. [<https://caravan-info.uz/uz/obrazovanie-i-nauka/742280-legenda-o-mecheti-bibi-hanum-lyubov-derzost-i-velichie.html>]

Bibixonim masjidi Samarqandning tarixiy va me'moriy merosida muhim o'rin tutadi. Bu masjid nafaqat Amir Temur va Saroy Mulk xonimning tarixiy shaxsiyatini aks ettiradi, balki O'rta Osiyodagi jome masjidlarning serhasham bezak va nafis arxitekturasini ham namoyon qiladi. Hovli, peshtoq, marmar ustunlar, gumbazlar va naqshinkor bezaklar o'sha davr ustalarining yuqori mahoratini ko'rsatadi. Hozirgi vayrona holatiga qaramay, masjidning tarixiy ahamiyati va estetik go'zalligi uning o'rta asr me'morchiligi va diniy hayotdagi o'rnini anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, masjidni saqlash va tiklash ishlari nafaqat tarixiy yodgorlikni himoya qilish, balki kelajak avlodga boy merosni yetkazish uchun ham zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibixonim>.
2. Mamatkulova Shaxnoza Raxmonkulovna "SAMARQANDDA TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYOD ETILGAN ME'MORIY OBIDALAR ".
3. Turg'un Fayziyev "Temuriy malikalar".
4. Botirxon Valixo'jayev " Saroymulkxonim - Bibixonim Madrasasi".
5. <https://caravan-info.uz/uz/obrazovanie-i-nauka/742280-legenda-o-mecheti-bibi-hanum-lyubov-derzost-i-velichie.html>
6. Ernazarova Shahnoza Ergash qizi, Toshkent Gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi "SOHIBQIRON AMIR TEMUR DAVRIDA SAYQAL TOPGAN SAMARQAND"